

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI
VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

«O`zbek adabiyoti tarixi»
fanidan 1-kurs talabalari uchun
mustaqil ish topshiriqlari
Uslubiy ko`rsatma

Navoiy-2006

Mazkur uslubiy ko`rsatmada o`zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabalarining «O`zbek adabiyoti tarixi» fanidan mustaqil ishlarni bajarish uchun zaruriy uslubiy ko`rsatma va topshiriqlar, zarur adabiyotlar va internet manzillarida mavjud saytlar berilgan. Uslubiy ko`rsatma o`zbek filologiyasi fakulteti talabalariga mo`ljallangan.

Uslubiy ko`rsatma O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining muvofiqlashtiruvchi Ilmiy kengashi tomonidan 2004 yil 2 fevralda tasdiqlangan namunaviy dasturi asosida hamda OO`MTVning «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to`g`risidagi Nizomi»ga muvofiq tuzildi.

Tuzuvchi: T.R.Xo`jayev,
filologiya fanlari nomzodi, docent

Mas`ul muharrir: M. Farmonova,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar: A. Zayniddinova,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
O.Qayumov,
filologiya fanlari nomzodi.

Uslubiy ko`rsatma NDPI O`zbek filologiyasi fakulteti Ilmiy uslubiy kengashining 2005 yil 2 dekabrda yig`ilishida muhokama etilib nashrga tavsiya qilingan.

Navoiy davlat pedagogika instituti «O`zbek adabiyoti» kafedrasining «Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to`g`risida»gi

N I Z O M I

I. Umumiy qoidalar

1.1 Mazkur Nizom O`zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi «Oliy ta`limning davlat ta`lim standartlarini tasdiklash to`g`rsida»gi 343-son qaroriga hamda OUMTVning 2005 yil 21 fevraldagi 34-sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan Oliy ta`lim muassasasida «Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to`g`risida»gi Namunaviy Nizomga muvofiq kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilishda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibini belgilaydi.

1.2. Talabaning mustaqil ishi o`quv rejasida adabiyotshunoslik fanlarini o`zlashtirish uchun belgilangan o`quv ishlarining ajralmas qismi bo`lib, u uslubiy va axborot resurslari jihatdan ta`minlanadi hamda bajarilishni reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

1.3. Institutda talabaning haftalik mustaqil ishlarini umumiy hajmi bakalavriatning kunduzgi bo`limida 22 soatni, magistraturada esa 18 soatni tashkil etadi.

1.4. O`quv semestri yakunida talabani mustaqil ishi bo`yicha to`plagan reyting ballari har bir fan bo`yicha auditoriyadagi o`quv ishlariga berilgan reyting ballari bilan birgalikda guruh reyting qaydnomasida, talabaning reyting daftarchasida va o`qitish yakunida bitiruvchiga taqdim etiladigan diplom ilovasida qayd etiladi.

II. Talaba mustaqil ishining maqsad va vazifalari

2.1. Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi o`qituvchi rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o`quv ishlarini mustaqil ravishda bajarishi uchun zarur bo`lgan bilim va ko`nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

2.2 Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- o`zbek va jahon adabiyotshunoslik fanida qo`lga kiritilayotgan yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o`zlashtirish ko`nikmalariga ega bo`lish;
- adabiyotshunoslik fanlari nazariyasiga doir kerakli ma`lumotlarni izlab topish, adabiy materialni tahlil qilishning qulay usul va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;

- anʻanaviy oʻquv va ilmiy adabiyotlar, meʼyoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron oʻquv adabiyotlari va maʼlumotlar banki bilan ishlash;
- Internet tarmogʻida yoritilib borilayotgan adabiyotshunoslik fanining yangiliklaridan maqsadli foydalanish;
- berilgan topshiriqni racional echimini belgilash;
- adabiyotshunoslik fanlaridan maʼlumotlar bazasini tashkil etish;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;
- mustaqil ishda oʻqituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- talaba tomonidan ishlab chiqilgan echim, loyiha yoki gʻoyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish.

III. Talaba mustaqil ishining tashkiliy shakllari

3.1. Talaba mustaqil ishini tashkil etishda adabiyotshunoslik fanlari (kurs)ning xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik oʻzlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni oʻquv adabiyotlari yordamida mustaqil oʻzlashtirish;
- berilgan mavzu boʻyicha axborot (referat) tayyorlash;
- seminar va amaliy mashgʻulotlarga tayyorgarlik koʻrish;
- laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik koʻrish;
- seminar mashgʻulotlariga tayyorgarlik koʻrish;
- malakaviy bitiruv ishi va magistrlik desertaciyasini tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qoʻllash;
- amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish;
- ilmiy maqola, anjumanga maʼruza tezislarini tayyorlash.

Oʻqitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, talaba mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanishi mumkin.

3.2. Oʻquv fanlari boʻyicha namunaviy va ishchi dasturlarda talaba mustaqil ishining shakli, mazmuni va hajmi ifoda etiladi.

3.3. Talaba mustaqil ishi uchun ajratilgan vaqt byudjetiga mos ravishda har bir fan boʻyicha tegishli kafedralarda mustaqil ishning tashkiliy shakllari, topshiriqlar variantlari ishlab chiqildi va fakulʼtet ilmiy-uslubiy kengashida tasdiqlanadi.

3.4. Mustaqil ishni bajarish uchun fanlar boʻyicha talabalarga zaruriy metodik qoʻllanma, koʻrsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

3.5. Har bir kafedra huzuridagi uslubiy ishlar bayoni tashkil etiladi.

IV. Talaba mustaqil ishining axborot ta'minoti.

4.1 Talaba uchun muayyon fan bo'yicha mustaqil ishi topshiriqlari tegishli kafedra professori (yoki etakchi docenti) tomonidan o'quv mashg'ulotlarini bevosita olib boruvchi o'qituvchi bilan birgalikda tuziladi hamda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi. Talabalarga berilgan mustaqil ish topshiriqlarini bajarish bo'yicha dastlabki ko'rsatma va tavsiyalar qayd etiladi.

4.2. Mustaqil ishni bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida darslik va o'quv qo'llanmalar, metodik qo'llanmalar va ko'rsatmalar, ma'lumotlar to'plami va banki, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar Internet tarmog'idagi tegishli ma'lumotlar, berilgan mavzu bo'yicha avval bajarilgan ishlar banki va boshqalar xizmat qiladi.

4.3. Kafedra mudiri va tegishli fakul'tet dekani taqdimnomasi asosida Oliy ta'lim muassasasi rahbariyati talabalarga mustaqil ishlari bajarish uchun zarur axborot va vositalarini belgilaydi, talabalarga turli kutubxonalar, muzeylar, O'zRFA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivi, tarmoq muassasalari va korxonalaridan mustaqil ish uchun zaruriy ma'lumotlar to'plash yuzasidan so'rovnoma xatlarini rasmiylashtirib boradi.

4.4. Institut rahbariyati tomonidan talabalarga mustaqil ishlarni o'z vaqtida bajarish uchun komp'yuter texnikasi va internet tarmog'idan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratilib beriladi.

V. Talabalar mustaqil ishini nazorat qilish va baholash

5.1. Har bir fan bo'yicha talaba mustaqil ishiga rahbarlik qilish yuklamasi (ishchi o'quv rejasining 10-ustunida keltirilgan) professor-o'qituvchi shaxsiy ish rejasining tashkiliy-uslubiy bo'limi (1540 soat doirasi)da qayd etiladi.

Talaba kurs ishi (loyihasi)ni hamda malakaviy bitiruv ishi va magistrlik dissertაციyasini tayyorlashga ajratilgan soatlar professor-o'qituvchi shaxsiy ish rejasining o'quv ishlari bo'limida qayd etiladi.

5.2. Talaba mustaqil ishiga rahbarlik qilish kafedrada tuziladigan va fakul'tet dekani tomonidan tasdiqlanadigan konsul'tაციyalar jadvali asosida amalga oshiriladi.

5.3. Talabaning mustaqil ishi bo'yicha konsul'taciya soatlari guruh jurnalida qayd etib boriladi.

5.4. Talaba mustaqil ishini nazorat qilish o`quv mashg`ulotlarini bevosita olib boruvchi o`qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

5.5. Talabaning mustaqil ishi, muayyan fan ishchi dasturida ajratilgan soatlarga mos reyting ballari bilan baholanadi va natijasi fan bo`yicha talabaning umumiy reytingiga kiritiladi.

Talabaning reyting ko`rsatkichlari, shu jumladan mustaqil ishi bo`yicha, an`anaviy guruh reyting oynasida va (yoki) fakultet maxsus elektron tarmog`ida yoritilib boriladi.

5.6. Talaba mustaqil ishini nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari tegishli kafedra tomonidan belgilanadi hamda fakul`tet Ilmiy kengashida tasdiqlanadi. Mustaqil ishlarni baholash mezonlari talabalarga o`quv yili (semestr) boshlanishi oldidan uslubiy materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

5.7. Mustaqil ish bo`yicha belgilangan maksimal reyting ballining 55% dan kam ball to`plagan talaba fan bo`yicha yakuniy nazoratga qo`yilmaydi.

5.8. Fanlar kesimida talabalarining mustaqil ishlari bo`yicha o`zlashtirishlari muntazam ravishda akademik guruhlarda, kafedra yig`ilishlari va fakul`tet Ilmiy kengashlarida muhokama etib boriladi.

5.9. Talabaning mustaqil ishi kafedra arxivida ro`yxatga olinadi va o`quv yili mobaynida saqlanadi.

Talabaning kurs ishi (loyihasi)ni xamda malakaviy bitiruv ishi yoki magistrlik dissertaciyasini ro`yxatga olish va saqlash tartibi tegishli me`yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

5.10. Institutda yuqori darajada baholangan talabarning mustaqil ishlari ma`naviy moddiy jihatdan rag`batlantiriladi.

Mazkur Nizom OUMTVning 2005-yil 21- fevraldagi 34-sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan Oliy ta`lim muassasasining «Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to`g`risida»gi Nizomi asosida ishlab chiqilgan.

Mavzu: ENG QADIMGI ADABIY YODGORLIKLAR. OG`ZAKI YODGORLIKLAR

(2 soat)

Uslubiy ko`rsatma

Mif va afsonalar. Qadimgi mif va afsonalarning vujudga kelishi: ularda ibtidoiy jamoa kishilarning jamiyat va tabiat haqidagi tasavvurlarining ifodalanishi. Mitra, Anaxita, Osha, Kayumars, Jamshid, Gershasp, Vertragna, elikbek va boshqa timsollar.

Qadimgi mifologik va afsonaviy obrazlarning tadrijiy takomili. Kayumars, Jamshid va boshqalarning adolatli shoh sifatida, qahramon, vatanparvar, fuqaroparvar, er yuzini obod, farovon etuvchi, yurtni balo-qazolardan qutqaruvchi obrazlar sifatida talqin etilishi. Qahramonlik eposi. Qadimgi qahramonlik eposlarida chet el bosqichlariga qarshi xalq kurashining ifodalanishi. Ularda xalq qahramonligi, adolat va ozodlik uchun kurash, vatanparvarlik, sevgi, sadoqat, ajdodlar udumiga e`tiqod motivlari. «Shiroq», «To`maris», «Zarina va Striangiya», «Siyovush», «Zariadr va Odatida», «Afrosiyob», «Rustam».

Lirik she`rlar va qo`shiqlar. Mahmud Qoshg`ariyning «Devonu lug`otit turk» asari orqali etib kelgan eng qadimgi lirik she`rlar va qo`shiqlarning janr tabiati, tematik ko`lami, g`oyaviy yo`nalishi. Alp er Tonga haqidagi to`rtliklar, ov jarani tasvirlangan parchalar. Ushbu she`rlarning poetik xususiyatlari. Yozma adabiyotga mansubligi haqidagi bahslar.

TOPSHIRIQLAR:

1. G'.Akramovning "Mifologiyaning ayrim epik janrlar bilan o`zaro munosabati" maqolasini qisqacha konspekt qiling.
2. "Avesto", Navoiyning "Tarixi muluki Ajam", Firdavsiyning "Shohnoma" asarlarida Kayumars, Jamshid obrazlarining berilishi haqidagi suhbatga tayyorlaning.
3. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida Siyovush obrazining berilishi bo`yicha konspekt tayyorlang.
4. "Mif va yozma adabiyot" degan mavzuda ilmiy matn tayyorlang.

ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov. Halollik va fidoiylilik faoliyatimizning asosiy mezon bo`lsin. «O`zbekiston». T., 1994.
2. I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. «O`zbekiston». T., 1994.

3. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 16-tom. T., 2000.
4. Avesto. A.Mahkam tarjimasi. T., 2001.
5. O`zbekiston xalqlari tarixi, 1-2 jild, «Fan». T., 1991-1993.
6. N.M.Mallayev. O`zbek adabiyoti tarixi, 1-kitob, «O`qituvchi». T., 1976.
7. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. «Fan», T., 1964.
8. Mahmud Qoshg`ariy, Devonu lug`otit turk, uch tomlik, tarjimon va nashrga tayyorlovchi O`zFAN, T., 1960-1963.
9. O`zbek adabiyoti tarixi, 5 tomlik, 1-tom, «Fan», T., 1977.
10. Fozilov E. Sharqning mashhur filologlari. «Fan», T., 1971.
11. Qayumov A. Qadimiyat obidalri. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1972.
12. Sodiqov M. Qadimgi podsholikdan qolgan yodgorlik. «Fan» T., 1994.
13. Homidov H. «Shohnoma»ning shuhrati. «O`zbekiston» T., 1992.
14. Firdavsiy «Shohnoma» 1-2-3-kitoblar. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashr. T., 1974-77.
15. Mallayev N.M. Abulqosim Firdavsiy, O`zadabiynashr. T., 1962.
16. G'ulom Akramov. Mifologiyaning ayrim epik janrlar bilan o`zaro munosabati//O`zbek folklorining epik janrlari. Maq.to`p.T., 1981.
17. G'.Akramov. Totemistik miflar. "O`zbek tili va adabiyoti", 1978, 3-son.

Mavzu: YOZMA YODGORLIKLAR

(4 soat)

Uslubiy ko`rsatma

Qadimgi yozuv yodgorliklarining adabiy va madaniy qimmati. «Avesto» zardushtiylik dinining muqaddas kitobi. Zardushtning hayoti va faoliyati, «Avesto»ning yaratilishi, tarkibiy qismlari. «Avesto»ning tarixiy-ilmiy-madaniy qimmati. Asarning adabiyotga, jumladan, she`riyatga aloqasi. Gershasp, Arjasp va Gushtasp haqidagi afsonalarning «Avesto»dagi ildizlari.

«O`rxun-enasoy» bitiklari. Yodgorliklarning topilish tarixi. Ularda ifodalangan tarixiy voqealarning hikoya etilishi. Yodgorliklarning badiiy qimmati. Bu yodgorliklarning keyingi yillarda topilgan boshqa namunalari.

TOPSHIRIQLAR:

1. “Avesto” ni o`qib chiqing.
2. T.Mahmudovning “Avesto” kitobiga yozilgan “So`ng so`z” ini o`qing va konspekt qiling.
3. O`rxun – enasoy bitiklaridagi kishilar va joy nomlarini aniqlang.
4. A.Qayumovning “Qadimiyat obidalari” kitobidagi O`rxun-enasoy yodgorliklari bobini gapirib bering.

ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov. Halollik va fidoiylilik faoliyatimizning asosiy mezon bo`lsin. «O`zbekiston». T., 1994.
2. I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. «O`zbekiston». T., 1994.
3. N.Rahmonov. Turk xoqonligi. T., 1994.
4. Avesto. A.Mahkam tarjimasi. T., 2001.
5. O`zbekiston xalqlari tarixi, 1-2 jild, «Fan». T., 1991-1993.
6. N.M.Mallayev. O`zbek adabiyoti tarixi, 1-kitob, «O`qituvchi». T., 1976.
7. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. «Fan», T., 1964.
8. Mahmud Qoshg`ariy, Devonu lug`otit turk, uch tomlik, tarjimon va nashrga tayyorlovchi O`zFAN, T., 1960-1963.
9. O`zbek adabiyoti tarixi, 5 tomlik, 1-tom, «Fan», T., 1977.
10. Fozilov E. Sharqning mashhur filologlari. «Fan», T., 1971.
11. Qayumov A. Qadimiyat obidalri. G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1972.
12. Sodiqov M. Qadimgi podsholikdan qolgan yodgorlik. «Fan» T., 1994.

Mavzu: . X-XII ASRLAR ADABIYOTI

(4 soat)

Uslubiy ko`rsatma

Tarixiy sharoit va madaniy hayot. Markaziy Osiyodagi elatlarning xalq sifatida shakllanishining tezlashib borishi. Madaniy hayotning tobora yuksalib borishi. Me`morchilik, tasviriy san`at, naqqoshlik, musiqa va boshqalarning rivoji. Ilm-fanning taraqqiysi. Markaziy Osiyolik olimlarning jahon fani taraqqiyotiga qo`shgan xissalari. Arab madaniyati, ilm-fani rivojida ajdodlarimizning o`rni. Al Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Farg`oniy, Ibn Sino, Zamaxshariy va boshqalarning hayoti va faoliyati.

IX-X asrlarda davriy (fors-tojik) adabiy tilining shakllanishi. Abu Abdullo Rudakiy fors-tojik tili va undagi badiiy adabiyotning asoschisi ekanligi. Shuning uchun ham bu o`lkalarda forsiy tilda yaratilgan adabiyot tojik, eron, Hind xalqlarining ham mushtarak yodgorligi ekanligi. Bu adabiyotning boshqa adabiyotlar bilan o`zaro hamkorligi.

Bu asrlardagi fors-tojik adabiyoti haqida umumlashtiruvchi ma`ruza. Bu adabiyotning mavzu doirasi, adabiy tur va janrlarning takomili; badiiylig, adabiyotshunoslikka doir asarlar. Fors-tojik adabiyotining paydo bo`lishi va takomilida Rudakiy, Daqiqiy, Firdavsiy, Nosir Xisrav, Umar Xayyom, Hoqoniy, Shervoniy va Nizomiylarning o`rni.

Xuroson va Movarounnahrda arab tilidagi adabiyot. Bu adabiyot rivojida forsiyzabon va turkiygo`y shoirlarning o`rni. Uning janr tabiati, mavzu doirasi, badiiyligi. Hajv arabiynavis shoirlar ijodida etakchi ekanligi. Nazm va nasrning omexta kelishi. Saolibiyning «Yatimm-ad-dahr» kitobi Movarounnahr arabiynavis shoirlar ijodini o`rganishda yagona manbaa ekanligi.

X-XII asrlarda turkiy adabiy tilning vujudga kelib, shakllana boshlashi.

TOPSHIRIQLAR:

1. Bu davr madaniy hayot va badiiy adabiyoti bilan tanishang.
2. “Bu davrda ilm – fan taraqqiyoti” mavzusida ilmiy matn tayyorlang.
3. Firdavsiy “Shohnoma” sini o`qib, konspekt tayyorlang, 25-30 misra (o`zi tanlagan holda) yod oling.
4. Nizomiy asarlari bo`yicha suhbatga tayyorlaning.
5. Abu Mansur Saolibiyning “Yatimat ad-dahr” kitobini o`qing va konspekt qiling.

ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov.Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. 7-tom. Toshkent: O`zbekiston, 1999.
2. N.Mallayev. O`zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob. T.,1976.
3. O`zbek adabiyoti tarixi. 5-tomlik. 1-tom. T.,1978.
4. R.Vohidov. H.Eshonqulov. Mumtoz adabiyot-hikmat xazinasi. Buxoro,2001
5. Abu Mansur as-Saolibiy. Yatimat ad-dahr fi mahosini ahli al-asr. T.,1976.
6. H.Homidiy. Ko`hna Sharq darg`alari. T., 1999.
7. I.Abdullayev. Beruniyga zamondosh shoirlar. T.,1974.
8. Buyuk siymolar, allomalar. 1-kitob. T., 1995.

9. Rudakiy. T., 1957.

10. Firdavsiy. Shohnoma. 1,2,3-kitoblar. T., 1974-77.

Mavzu: TASAVVUF

(4 soat)

Uslubiy ko`rsatma

Tasavvuf haqida. So`fizmda o`ziga xos falsafiy oqim sifatida. So`fizmda insonparvarlik va komil insonni tarbiyalash g`oyasi: Jahriya, Xurufiya, Kubraviya, Yassaviya, Naqshbandiya, Javonmardlik oqimlaridagi o`zaro mushtaraklik va o`ziga xoslik. Tasavvuf va she`riyat. Tasavvufning badiiy adabiyotga ta`siri.

TOPSHIRIQLAR:

1. Usmon Turarning "Tasavvuf tarixi" kitobini o`qib konspekt qiling.
2. N.Komilovning "Tasavvuf" kitobi yuzasidan suhbatga tayyorlaning.
3. "Tasavvuf allomalari" mavzusini internetdan yoki H.Homidiyning "Tasavvuf allomalari" kitobidan o`qing.
4. "Tasavvuf tariqatlari", "Tasavvuf allomalari", "Tasavvuf" kabi jadvallaridan birini tayyorlang.

ADABIYOTLAR:

1. Darsliklar.
2. E.Bertels. Sufizm i sufiyskaya literatura. M.1965.
3. M.Hazratqulov. Tasavvuf. Dushanbe, 1988.
4. V.Zohidov. Ulug' shoir ijodining qalbi. T., 1970.
5. Foyiblar xaylidan yongan chiroqlar. T., 1994.
6. N.Komilov. Tasavvuf. 1-kitob. T., 1996.
7. N.Komilov. Tasavvuf. 2-kitob. T., 1999.
8. I.Haqqulov. Tasavvuf va she'riyat. T., 1991.
9. I.Haqqul. Irfon va idrok. T., 1998.
10. I.Haqqul. Tasavvuf saboqlari, Buxoro-2000.
11. S.Olim. Ishq, oshiq va ma'shuq. T., 1994.
12. S.Olim. Naqshband va Navoiy. T., 1996.
13. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. T., 1999.

Mavzu: MAHMUD QOSHG'ARIY "DEVONU LUG'OTIT TURK"

(4 soat)

Uslubiy ko`rsatma

Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari o`qiladi. U orqali etib kelgan eng qadimgi lirik she`rlar va qo`shiqlarning janr tabiati, tematik ko`lami, g'oyaviy yo`nalishi. Alp er Tonga haqidagi to`rtliklar, ov jarani tasvirlangan parchalar. Lirik she`rlarda ijtimoiy adolatsizlik, zamona bo`g'iqligidan, odamlar o`rtasidagi muruvvatsizlikdan shikoyat, oshiq dardi, r chiroyi tasviri, tabiat manzaralarining nozik manzaralari. Ushbu she`rlarning poetik xususiyatlari. Yozma adabiyotga mansubligi haqidagi bahslar.

TOPSHIRIQLAR:

1. A.Qayumovning "Qadimiyat obidalari" kitobidan "Devonu lug'otit turk" ka oid qismini o`qing va konspekt qiling.
2. "Devonu lug'otit turk" da pezaj lirikasi", "Asardagi she`rlarning mavzulari", "Devonu lug'otit turk" dagi maqollar tasnifi", "Devon" dagi she`rlarda ishq – muhabbat mavzusi" kabilardan biri yuzasidan ilmiy ish tayyorlang.
3. "Devon" dagi to`rtliklardan 5-10 ta yod oling.
4. "Devonu lug'otit turk" ning o`zbek adabiyotidagi o`rni xususida gapirib berishga tayyorlaning.

ADABIYOTLAR:

1. Darsliklar.
2. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk. 3-tomlik. T., 1960-63.
3. Qadimiy hikmatlar. T.,1987.
4. Buyuk siymolar, allomalar. 1-kitob. T.,1995.
5. A.Qayumov. Qadimiyat obidalari. T.,1973.
6. B.To`xliyev. O`zbek adabiyoti. 9-sinf. Darslik. T.,2000.

Mavzu: YUSUF XOS HOJIB "QUTADG'U BILIG"

(4 soat)

Uslubiy ko`rsatma

Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodi haqida ma`lumot. Yusuf Xos Hojib XI asrning atoqli donishmandi, shoir va davlat arbobi.

Balosog'undagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. Turkiy til va undagi badiiy adabiyotning shakllanishida shoir ijodining o'rni.

«Qutadg'u bilig»ning syujet iva kompozitsion qurilishi masalasi. Obrazlar tizimi. Timsollarning majoziyligi. Asardagi lirik muqaddima, lirik chekinish, qistirma va xotimalar. Dostonning janr tabiati, vazni, tarkibiy jihatlari, badiiy xususiyatlari. «Qutadg'u bilig»da an'ana va o'ziga xoslik. Doston va xalq og'zaki ijodi. Dostonning barcha turkiy xalqlar uchun mushtarak yodgorlik ekanligi. Yusuf Xos Hojibning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy, komil inson haqidagi qarashlarining zamonamiz uchun ahamiyati.

TOPSHIRIQLAR:

1. Q.Karimovning "Ilk badiiy doston" kitobini o'qib konspekt qiling
2. "Qutadg'u bilig" – axloqiy – ta'limiy asar" mavzusida ilmiy ish tayyorlang.
3. Ilm –ma'rifat, til odobiga oid o'zi tanlagan misralardan 15-20 misra yod oling.
4. "Qutadg'u bilig va folklor", "O'zg'urmushning o'limi tasviri", "Dostonda irsolu masal san'ati" mavzularidan biri haqida gapirib bering.
5. "Dostondagi obrazlar" nomli ko'rgazmali jadval tayyorlang.

ADABIYOTLAR:

1. Darsliklar.
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. T.,1971.
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. T.,1990.
4. Qadimgi hikmatlar. T.,1987.
5. Buyuk siymolar, allomalar. 1-kitob. T.,1995.
6. Q.Karimov. Ilk badiiy doston. T.,1976.
7. B.To'xliyev. O'zbek adabiyoti. 9-sinf. Darslik. T.,2000.
8. H.Homidiy. Ko'hna Sharq darg'alari. T.,1999.

Mavzu: RABG'UZIY . «QISSASI RABG'UZIY»

(2 soat)

Uslubiy ko'rsatma

Rabg'uziyning adabiy faoliyati. «Qissasi Rabg'uziy», «Qissasi Rabg'uziy»dagi diniy hikoyatlar. Bu hikoyatlarning manshalari va

mohiyati. «Qissasi Rabg'uziy»dagi hikoyatlarga xalq og'zaki ijodining ta'siri. «Qissasi Rabg'uziy»dagi hikoyatlarning badiiy nasr rivoji va takomilida tutgan o'rni. Rabg'uziy she'rlarida tabiat tasviri. «Qissasi Rabg'uziy»dagi hikoyatlar va she'rlarning badiiyati.

TOPSHIRIQLAR:

1. Rabg'uziyning «Qissasi Rabg'uziy» asarini to'liq o'qing.
2. «Qissasi Rabg'uziy» dagi hikoyatlarni mavzu yuzasidan tasnif qiling.
3. «Qissasi Rabg'uziy» va Qur'oni karim", "Qissasi Rabg'uziy" dagi she'rlarning badiiy xususiyatlari", "Qissasi Rabg'uziy" ning tuzilishi", "Qissasi Rabg'uziy" va folklor" kabi mavzulardan birini gapirib berishga tayyorlaning.
4. H.Karomatovning "Qur'on va o'zbek adabiyoti" kitobini konspekt qiling.

ADABIYOTLAR:

1. N.Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob. T.,1963.
2. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1-tom. T.,1978.
3. Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 1-kitob. T.,1991.
4. Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 2-kitob. T.,1992.
5. K.Imomov. O'zbek xalq prozasi. T.,1981.
6. I.Ostonaqulov. Qissas-ar-Rabg'uziy-adabiy asar. Kan.diss.avtor. T.,1993.
7. B.To'xliyev. O'zbek adabiyoti. Darslik. 9-sinf. T.,2000.
8. R.Vohidov, H.Eshonqulov. Mumtoz adabiyot-hikmat xazinası. Buxoro,2001.
9. H.Safarova. Rabg'uziyning «Qissai Yusuf Siddiq alayhis-salom» asari manbalari va g'oyaviy-badiiy tahlili. Nom.diss.avto. Samarqand-2001.

Mavzu: XIV ASR O`RTALARIDAN XVII ASRGACHA BO`LGAN DAVRDA TAZKIRACHILIK

(2 soat)

Uslubiy ko'rsatma

Tazkirachilik. XV-XVI asrlar tazkirachiligi haqida. Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat-ush-shuaro», Jomiyning «Bahoriston» (ettinchi ravzasi) va Navoiyning «Majolisun-nafois» asarlari. Bu

asarlarning fors-tojik tilidagi adabiyot va o'zbek adabiyoti tarixini o'rganishdagi ahamiyati. Tazkiralardan biografik, tarixiy-ma'rifiy materiallar va badiiy adabiyot namunalari. Tazkiralarning o'ziga xos ijobiy tomonlari, chunonchi faktik materiallarga boyligi, adabiy-tanqidiy muhokama. Tazkiralarda adabiyotlar o'rtasidagi aloqalarning in'ikosi. «Badoe'-ul-vaqoe'», «Makorimul-axloq», «Boburnoma» kabi me'muar manqib asarlarda adabiyot namoyondalari haqida berilgan faktik ma'lumotlar. Adabiyotshunoslikning rivojida Navoiy va Jomiyning tutgan o'ni, xizmatlari.

TOPSHIRIQLAR:

1. Tazkira janri haqida nazariy ma'lumot oling.
2. Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat-ush-shuaro», Jomiyning «Bahoriston» (ettinchi ravzasi) va Navoiyning «Majolisun-nafois» asarlaridan birini o'qib gapirib bering.
3. Tazkiralarga kiritilgan shoirlar she'rlaridan tanlab 20-25 misra yod oling.
4. B.Valixo'jayevning "O'zbek adabiyotshunosligi tarixi" kitobini o'qib, tazkiralari qismini konspekt qiling.

ADABIYOTLAR:

1. Darsliklar
2. A.Navoiy. Asarlar. 15 tomlik. 13-tom. T., 1960.
3. D.Samarqandiy. Shoirlar bo'stoni. T., 1981.
4. A.Jomiy. Bahoriston. T., 1993.
5. I.Mo'minov. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'ni va roli. T., 1993 y.
6. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. X-XIX asrlar. «O'zbekiston», 1993.
7. Xondamir. Makorim-ul-axloq. T., 1967 y.
8. Ahmad Taroziy. Fununul balog'a. «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali. 2002 yil. №1-6.
9. Amir Temur o'gitlari. T., 1992.
10. E.Rustamov. Uzbekskaia poeziia v pervoy polovine XV veka. M., 1963.
11. A.Hayitmetov. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. T., 1996.
12. Yo.Ishoqov. Naqshbandiya ta'limoti va o'zbek adabiyoti. T., 2002.

Mavzu: ATOIY SHE`RIYATI

(2 soat)

Uslubiy ko`rsatma

Atoiyning hayoti va ijodiy faoliyati. Atoiy - lirik shoir. Atoiy devoni. G'azal – Atoiy lirikasining etakchi janri. Atoiy she`riyatining mavzulari, mazmun doirasi. Atoiy lirikasida hayotsevarlik, yashash zavqi. Oshiq, ma`shuq timsollari. Sevgi va sadoqat mavzusi. Atoiy g'azalyotida rindona g'oyalar, hayotiy lavhalar. G'azallar badiiyati, uslubiy soddaligi. Atoiy ijodiga xalq og'zaki ijodining ta`siri.

Atoiy haqida Navoiy. Navoiy va Atoiy. Atoiy lirikasining mavzular ko`lami, mazmunan boyligi, uslubiy ravonligi, xalqona ekanligi.

TOPSHIRIQLAR:

1. Atoiy devonini to`liq o`qib chiqing.
2. Shoirning o`zingiz tanlagan 5-6 ta g'azalini yod oling va tahlil qiling.
3. S. Rafiddinovning “Majoz va haqiqat” kitobini o`qib konspekt qiling.
4. “Atoiy she`riyatida tasavvuf g'oyalari” degan mavzuda ilmiy matn tuzing.
5. Internetning “O`zbek adabiyoti tarixi” saytidan Atoiy haqidagi ma`lumotlarni o`qing.
6. “Atoiy she`riyatida badiiy san`atlar” mavzusini gapirib berishga tayyorlang.

ADABIYOTLAR:

1. Darsliklar.
2. O'toyi. Tanlangan asarlar. T., 1960.
3. Hayot vasfi. T., 1988.
4. Navoiyning nigohi tushgan. T., 1986.
5. Hodi Zarif. Fozillar fazilati. T., 1979.
6. E. Rustamov. Uzbekskaia poeziia v pervoy polovine XV veka. M., 1963.
7. Hayitmetov. Navoiy lirikasi. T., 1961.
8. Hayitmetov. Meros va ixlos. T., 1985.
9. Haqqulov. She'riyat-ruhiy munosabat. T., 1990.
10. S. Rafiddinov. Majoz va haqiqat. T., 1995
11. Tohir Rashid Xo'ja .Atoiy lirikasi va xalq og'zaki ijodi .Til va adabiyot masalalari to'plami. T., 1993.

Mavzu: SAKKOKIYNING BADIY MAHORATI

(2 soat)

Uslubiy ko`rsatma

Sakkokiy hayoti va ijodiy faoliyati. Sakkokiy va Ulug'bek. Sakkokiy devoni. Shoir g'azalyoti. Uning mavzular va g'oyalar dunyosi. Hayotiy sevgi, sadoqat masalasi. Sakkokiy g'azallarining badiiyati va tili. Sakkokiy va uning g'azaliyoti haqida Navoiy. Sakkokiyning badiiy mahorati (mavzu, shakl, qofiya va radif, badiiy vositalar, she`riy san`atlar, hayotiy lavhalar va boshqalar).

TOPSHIRIQLAR:

1. Sakkokiy devonini to'liq o'qib chiqing.
2. Shoirning o'zingiz tanlagan 5-6 ta g'azalini yod oling va tahlil qiling.
3. "Sakkokiy she`riyatida badiiy san`atlar", "Shoir g'azallaridagi obrazlar", "Sakkokiy she`riyati mavzulari" kabilarga doir ilmiy matn tuzing.

ADABIYOTLAR:

1. Darsliklar.
2. Sakkokiy. Tanlangan asarlar. T.,1960.
3. Hayot vasfi. T.,1988.
4. Navoiyning nigohi tushgan. T.,1986.
5. E.Rustamov. Uzbekskaya poeziya v pervoy polovine XV veka. M.,1963.
6. Navoiy zamondoshlari. T.,1948.
7. Hodi Zarif. Fozillar fazilati. T.,1979.
8. Ahmad Taroziy. Fununul balog'a. «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali. 2002 yil №2-6.

Mavzu: LUTFIY SHE`RIYATI

(4 soat)

Uslubiy ko`rsatma

Lutfiy – lirik shoir. Lutfiy devoni. Shoir she`riyatining janrlari, lirikasining mavzulari. Lutfiy she`riyatida hayotsevarlik, yashash zavqi, mazmunli, saodatli umr (hayot) ishtiyoqi. Shu yo`lda kurash g'oyasi. Umuman, Lutfiy she`riyatida hayot zavqi va inson madhi. Lirik qahramon

masalasi. Mahbuba va shoir. Raqib va shoir. Zohid va shoir. Shoir sheʼriyatida ruhiyat tasviri va hayot lavhalari. Lutfiy tuyuqlari, ruboiylari. Oʻzbek sheʼriyati, klassik lirikasi janrlari rivojida Lutfiy oʻrni, xizmatlari. Lutfiy mahorati, sanʼatkorligi. Lutfiy sheʼriyatining til xususiyatlari. Lutfiy – zullisonayn shoir. Lutfiyning fors-tojik tilidagi sheʼrlari haqida zamondoshlari. Lutfiy ijodiga xalq ogʻzaki poeziyasini taʼsiri. Lutfiy lirikasining poetikasi.

TOPSHIRIQLAR:

1. S.Erkinovning “Lutfiy” asarini oʻqib konspekt qiling.
2. A.Taroziyning “Funun ul-balogʻa” asaridan Lutfiyga doir maʼlumotlarni aniqlang.
3. Texnik vositalar yordamida Lutfiy lirikasidan badiiy oʻqish, kuy, qoʻshiq tayyorlang.
4. B.Valixoʻjayevning “Malikul-kalom Mavlono Lutfiy” kitobi haqida gapirib bering.
5. Shoir gʻazallaridan 5-6 ta yodlang va tahlil qiling.

ADABIYOTLAR:

1. Darsliklar.
2. Lutfiy. Sensan sevarim. T.,1982.
3. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. T.,1966.
4. Hodi Zarif. Lutfiy va Navoiy. Ulugʻ oʻzbek shoiri. Toʻplam.T.,1948.
5. Navoiy zamondoshlari xotirasida. T.,1984.
6. E.Rustamov.Uzbekskaya poeziya v pervoy polovine XV veka.M,1963
7. S.Erkinov. Lutfiy T.,1965.
8. A.Hayitmetov. Navoiy lirikasi. T.,1961.
9. A.Hayitmetov. Meros va ixlos. T.,1987.
10. A.Hayitmetov.Dilimizga juda yaqin.Oʻz AS gazetasi.1998 yil,17 aprel
11. E.Ahmadxoʻjayev. Turkiy nazmning sehgari T.,1992.
12. Buyuk siymolar, allomalar. 2-kitob T.,1996.
13. B.Valixoʻjayev. Lutfiy va Navoiy. Samarqand, 1999.
14. Ahmad Taroziy. Fununul balogʻa. «Oʻzbek tili va adabiyoti» jurnali. 2002 yil. №1-6.

